




TAKLIF XATI



26-27-sentyabr, 2025
World Edu Samarqand
SOF EXPO ko'rgazmalar markazi
www.sofexpo.uz



**EXHIBITION
CENTER**



№1202 / 21.06.2025y

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan
va innovatsiyalar vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" dasturi yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "SOF EXPO Samarqand" xalqaro ko'rgazmalar markazida 2025 yilning 26-27 sentabr kunlari "WORLD EDU 2025 " xalqaro ko'rgazmasi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

"WORLD EDU 2025" -Iqtidorli talaba va abituriyentlarga mahalliy va xorijda ta'lim olish, ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari bilan tanishish, stipendiya yoki ta'lim grantlarini qo'lga kiritish imkoniyatlari bilan tanishish imkonini beradi.

Ko'rgazma doirasida hamkorlikda Sizning chora- tadbirlaringizga aloqador, rejalashtirilayotgan tadbirlarni,xalqaro uchrashuvlarni o'tkazish imkoni ham mavjud.

"WORLD EDU 2025" Ko'rgazmada O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo, Turkiya va boshqa davlatlarning universitetlari ishtirok etishi ko'zda tutilgan. Abituriyentlar o'zlarini qiziqtirgan soha bo'yicha rasmiy vakillar va malakali mutaxassislar bilan bevosita muloqot qilishlari va maslahat olishlari mumkin.

Ko'rgazmamiz ta'limning turli yunalishlariga bag'ishlanadi:

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- oliy ta'lim;
- qo'shimcha mutaxassislik



+998 55 705 0 705
+998 97 919 31 17



Самаркандская область, Джамбайский
район, поселок Дехканабад



sofexpo@exat.uz
info@sofexpo.uz
www.sofexpo.uz



Yuqorida qayd qilinganlarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligidan quyidagilar bo'yicha amaliy yordam berishingizni so'raymiz:

- Tadbirimizning ochilish marosimida bevosita qatnashishingizni;
- Markazimizda o'tkazilayotgan tadbir mavzusini inobatga olib, Sizni va o'rinbosaringizni spikerlar sifatida forumda qatnashishingizni va ko'rgazmamizga tashrif buyurishingizni;
- Vazirlik nomidan ko'rgazmamizni rasman qo'llab-quvvatlashingizni;
- Bilim va malakani baholash agentligini jalb qilishda va ular orqali tadbir jarayonida diagnostik test o'tkazishda;
- Sizning tashkilotingizdagi media kanallar orqali tadbirimizni yoritib berishda;
- Bizlar o'tkazayotgan tadbirga Sizning vazirligingiz bilan bog'liq bo'lgan ta'lim muassasalarini jalb qilishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ilovada batafsil ma'lumot olish uchun tadbirimizning rasmiy taqdimotini ko'rishingiz mumkin.

**Hurmat bilan,
SOF EXPO Samarkand
Ko'rgazmalar markazi
direktori:**



A.I.Tadjibayev

Ijrochi: R.Karimova +998 88 399 07 05/55 705 0 705

+998 55 705 0 705
+998 97 919 31 17



Самаркандская область, Джамбайский район, поселок Дехканабад



sofexpo@exat.uz
info@sofexpo.uz
www.sofexpo.uz



WORLD EDU 2025 AUTUMN

SOF EXPO SAMARKAND

26-27 Sentyabr
Samarqandda



Ko'rgama markazining manzili:
Samarqand viloyat, Jomboy tumani, Dehqonobod MFY

XA QARO
M
KO RG MAS

TASHK TCHI
OOO RESO O"